

4. So'zlarni nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

5. Rasmda berilgan harflarni namunada ko'rsatilgan tartibda bo'yang.

Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?

- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

24-mavzu: [o'] tovushi. O'o' harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [o'] tovushining talaffuzi va O'o' harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so'zlardan [o'] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;

- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: bo'g'inlar jadvali, [o'] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasimli kartochkalar, kesma harflar.

Darsning borishi:

I. Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Mendan so'ra mashqi: O'qituvchi o'quvchilardan so'roq gap tuzishni so'raydi.

- Bugun siz bilan "Mendan so'ra" mashqini o'tkazamiz. Siz istalgan mavzuda so'roq gap tuzasiz. O'rtoqlaringiz esa unga javob beradilar.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida o harfi va o' harfi bilan boshlanadigan 5 ta so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Qanday so'zlar tuza oldingiz?
- Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?
- Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

2. Mavzuni mustahkamlash: (10 daqiqa)

O'qituvchi [o'] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

O'rdak (rasm)- bo'g'inga bo'linadi 2 bo'g'in, 1- bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2- bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush.

O' harfi bu so'zda 1- katakda ekanligini aniqlab shu kataklarni bo'yaydi.

Dar

[o'] tovushi. O' o' harfi 24-dars

Rasmdan O' harfi qatnashgan so'zlarni toping va ularga mos chizmani ko'rsating.



o	a
i	u
o'	

t	n
l	m
d	k

to'-lin	ko'-k-lam	ko'-l-mak
to'-kin	do'-kon	ko'-lan-ka
to'-n-ka	do'-la-na	ko'-m-ko'-k

k	o'	k
o	o'	
n	o	l

t	o'	l	a
o'		l	
d		l	
a	m	a	

t	o'	n	k	a
o'				m
n				a
l				k
i	l	m	l	i

So'zlardagi xatolarni toping va ularni to'g'rilang.


dolana


to'di


to'mka

35

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

"Moslashtiring" mashqi bajariladi. Rasmni ifodalovchi so'zlar ularga tegishli chizma bilan bog'lanadi.

(o't, o'rdak, o'simlik)

1. Berilgan so'zlarni navbat bilan ketma-ket o'qing.

2. So'zlarni ko'rsatkich bo'ylab o'qing.

Ko'k, ko'l, nol, kon.

To'la, alla, amma, to'da.

To'nka, amaki, to'nli, ilmi.

3. So'zlardagi xatoliklarni toping va ularni to'g'rilang.

(do'lana, to'ti, to'nka)

Daftar bilan ishlash: (8 daqiqa)

1. Puffaklar ichida berilgan bo'g'inlarni

o'qing. Ularni ochiq va yopiq bo'g'inlarga



ajratib bo'yang.

2. Namunaga qarab harflarning atrofiga tegishli shaklni chizing.



3. Rasmlarni ifodalovchi so'zlarda nechta bo'g'in bo'lsa, shuncha yulduzchani bo'yang.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

-Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?